

O‘ZBEKISTONDA YETISHTIRILADIGAN KUNJUT NAVLARI

Matkarimova Ma’rifat Ro‘zimboyevna

q.x.f.f.d (PhD), UrDU

Masharipova Anajon Alisher qizi

1-kurs magistrant, UrDU

Jabbarova Shadiyon

2- kurs biologiya talabasi, URDU

ANATATSIYA: Ushbu maqolada O‘zbekistonda yetishtiriladigan navlar tavsifi, qaysi davlatlardan kelib chiqqani, kunjut urug‘i tarkibi, foydali xususiyatlari, vitaminlari, kunjut moyi tarkibiy tuzilishi keng tarzda yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Kunjut, nav, Tashkentskiy 122, Qora shaxzoda, Sadaf, kunjut moyi, poya, barg, ko‘sak, urug‘, hosil.

АНАТАЦИЯ: В данной статье описаны сорта, выращиваемые в Узбекистане, из каких стран они происходят, состав семян кунжута, полезные свойства, витамины, а также состав кунжутного масла.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Кунжут, сорт, Ташкентский 122, Кора шахзода, Садаф, кунжутное масло, стебель, лист, коробочке, семя, урожай.

ABSTRACT: This article describes the varieties grown in Uzbekistan, from which countries they come, the composition of sesame seeds, beneficial properties, vitamins, and the composition of sesame oil.

KEY WORDS: Sesame, variety, Tashkent 122, Shahzoda bark, Sadaf, sesame oil, stem, leaf, pod, seed, harvest.

Barcha o‘simliklarning poyasi barglari va urug‘lari o‘ziga xos biologik tuzilish va kimyoviy tarkibga ega bo‘ladi . O‘simliklar har doim tashqi abiotik omillar ta’sirida o‘zgarib turadi . Kunjut –bir va ko‘p yillik, moyli o‘simliklar turkumiga kirib, vatani –Afrika. O‘rta Osiyoga Hindistondan keltirilgan. FAO ning 2023 yil hisobotlarida keltirilishicha dunyoning 80 ga yaqin mamlakatlarida kunjut urug‘i yetishtiriladiganer maydonlari 12.8 mln hektarni tashkil qilib, o‘rtacha hisobda 6,7 mln. tonna kunjut urug‘ olingan [4].

So‘ngi yillarda Respublikamiz qishloq xo‘jaligida tub islohatlar olib borilishi natijasida moyli ekinlarga bo‘lgan e‘tibor kundan kunga ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmonida “qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish tartibini qayta ko‘rib chiqish va yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash” bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalariga asosan bugungi kunda respublikamizning 32,8 ming gektar maydonida kunjut yetishtirib kelinmoqda [1].

Osiyo va Afrikalik aholi kunjutni keng tarzda o‘rganib, kunjut moyini sifatli oziqa sifatida ishlatib boshlaganlar. Dunyoda kunjutni eng ko‘p iste‘mol qiladigan mamlakatlardan biri Tanzaniya davlati bo‘lib, yetishtirilgan kunjut urug‘ining 21%ni, Xitoy 19%, Sudan 9% ini, Myanma 6% ini, Indiya 6% ini, Efiopiya 6% ini, Nigeriya 6% ini istemol qiladilar. Ushbu mamlakatlar jami dunyoda ishlab chiqaradigan kunjut urug‘ining 74% ini o‘z oshxonalarida foydalanadilar.

Kunjut urug‘ida bir qancha xil vitaminlar: A, B2, B1, PP, E, ko‘plab minerallar kaliy, magniy, temis va fosfor mavjud bo‘lib, 100 gramida 48-63% - moy, 16-20% - oqsil va 5gram suv, 131-970 mg kalsiy hamda yarim quriydigan yod soni - 103-104 ga teng.

Kunjut urug‘da tabiiy antioksidantlardan sezamalin sezamin va sezamollar uchraydi. Kunjut urug‘i moyida moy kislotalardan 46-49% olein va 38-48 % linol, 8-9% palmitin va 4-5 % stearin, 0,4-1 % araxin bo‘ladi.

Kunjut moyi sovuq yanchish usuli bilan olinadi va oziq-ovqat sanoatida ishlatilib, inson organizmi uchun foydaliligi jihatdan zaytun moyidan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi. Kunjut urug‘idan moydan tashqari shirin holvalar, qora qog‘ozlar, bosmaxona va parfyumeriya bo‘yoqlari olinadi, urug‘ini o‘zi non va qandolatchilik mahsulotlariga ishlatiladi.[7]

Kunjut issiqsevar, yorug‘likka talabchan, qurg‘oqchilikka chidamli o‘simlik bo‘lganligi sababli, uni yetishtirishda uning o‘sishi va rivojlanish davrida harorat va tuproq-iqlim sharoitini inobatga olish muhim hisoblanadi.





1-rasm. Kunjutning umumiy ko‘rinishi.

Kunjut Pedaliaaceae oilasi, Sesamum turkumining Sesamum indicum turiga mansub bir va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumiga kiruvchi - moyli ekidir. Poyasi tik o‘sadi, 4-6 ta uzun yon shoxlar chiqaradi. Bargi tuk bilan qoplangan oddiy, bandli, yakka-yakka yoki qarama-qarshi joylashgan. Guli barg qo‘ltig‘ida 1-3 ta bo‘lib joylashgan, 5 bargli. Mevasi cho‘ziq, yassi tukli - ko‘sakcha. Bir tupda 20-300 ko‘sakcha hosil qiladi. Ko‘sakchasi 2 yoki 4 uyali bo‘lib uzunligi 3-5 sm. 1000 dona urug‘i og‘irligi 2-5 g. Urug‘ining rangi och yoki to‘q jigarrang, goh oq va qora. Kunjut issiqsevar, yorug‘sevar, qisqa kun o‘simligi. Urug‘i 15-16°C da unib chiqadi. O‘sish davri navlariga qarab 90 – 110 (120-150) kunningi tashkil qiladi [6].



2-rasm. Oq va qora kunjut urug‘i



Kunjut sur tuproqli, unumdor, don-dukakli ekinlardan bo‘shagan yerdarda mo‘l hosil beradi. O‘suvi davrida 2-3 marta kultivatsiya qilinib, gullashiga qadar 1-2 marta, gullash davrida 2 marta suvi berilsa mo‘l hosil olish mumkin [4].

O‘zbekistonda kunjut qadimdan ekiladigan asosiy moyli ekinlardan biri sanaladi. Afrika kunjutning vatani hisoblanadi. O‘zbekistonga kunjut Panjob (Pokiston) orqali kirib kelgan. Markaziy Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan. Madaniy yoki Hind kunjuti —*Sesamum indicum* L. bir yillik o‘simlik. Uning 19 turi ma‘lum bo‘lib ekiladigan hamma navlar madaniy kunjut turiga kiradi. Hozirgi kunda **O‘zbekistonda kunjutning davlat reyestriga kiritilgan 3** ta Tashkentskiy 122, Qora shaxzoda va Sadaf navlari yetishtiriladi [2].

Tashkentskiy 122. Butun ittifoq o‘simlikshunoslik institutining O‘rta Osiyo filiali O‘simlikshunoslik ilmiy tekshirish institutida seleksiya yo‘li bilan G.M. Popov va F.S. Venslavovichlar (1942 yil) tomonidan yaratilgan. Juda uzoq yillardan beri Respublikada asosiy iqlimlashtirilgan nav sifatida ekilib kelinadi. Tur xili (*Sesamum indisum*), Tashkentskiy 122 o‘rtapishar nav, 110-126 kunda pishadi. Bo‘yining balandligi 120-150 sm.gacha bo‘ladi, shoxlaydi, tik o‘suvi, barglari poyada uch xil morfologik shaklda joylashadi, rangi to‘q yashil tusda, tukli. Poyasi to‘rt qirrali. Shoxlanishi o‘rtacha, barglari juda ko‘p, guli barg qo‘ltig‘idan bir dona bo‘lib osilib turadi, rangi oq, pushti ranglarda bo‘lib faqat bir kun gullari ochilib turadi. Urug‘lari ko‘sakchada to‘rt bo‘lakka bo‘lingan, o‘rtasida yupqa qavatlar bor va kunjut urug‘lari tartib bilan joylashadi. 1000 dona urug‘ining og‘irligi 3-3,5 gramm keladi. O‘rtacha hosildorlik: 10-17,5 s/ga. Pishgan vaqtda pastki ko‘sakchalari yorila boradi. Bu navning bir yaxshi xususiyati shuki, qurg‘oqchilikka chidamli. Respublikamiz barcha hududlarida ekish uchun tavsiya qilingan.

Qora shaxzoda navi. Ushbu nav O‘simlikshunoslik Ilmiy tadqiqot instituti olimlari M.Amanova, A.Rustamovlar (2012) tomonidan yakka tanlash usuli bilan yaratilgan. Navning kelib chiqishi: Kolleksiya namunasi k-84 (O‘zbekiston) yakka tanlash yo‘li bilan seleksion nav sertifikatini olgan. Tur xili (*Sesamum indisum*) Poyasining balandligi 120-150 cm., poyasi tik o‘sadi, O‘suvi davri o‘rtacha 110-120 kun. 1000 dona urug‘ vazni o‘rtacha 2,6-3,0 gr, urug‘i ko‘proq qora rangda. Don to‘kilishiga bardoshli. O‘rtacha hosildorlik: 17,6 s/ga. Dondagi yog‘ miqdori 63 foizni, oqsil 24 foizni tashkil qilgan. Sinov davrida qishloq xo‘jalik kasalliklari va xashoratlari bilan zararlanish xolatlari kuzatilmadi. Mamlakatimiz hududida barcha viloyatlarda ekish uchun tavsiya qilingan [3].

Sadaf navi - 2019–yildan davlat reyestriga kiritilgan. Mamlakatimiz hududida **Toshkent viloyatida** ekish uchun tavsiya qilingan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mimkinki, bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan kunjut navlari urug‘idan tayyorlanayotgan kunjut konditerlik mahsulotlari, kunjut moyi, taxin va kunjut xolva kabi mahsulotlar **Ozarbayjon, Belarus Respublikasi, Germaniya, Iroq, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Livan, Mongoliya, Tojikiston** kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat Reyestri // Toshkent. 2024 y. 25-b.
3. Amanova M., Rustamov A., Rustamov B., 2023, Improving elements of sesame growing agrotechnology in the climate conditions of Khorezm province, Uzbekistan // Web of Conferences.1-8pp.
4. Yormatova D. O‘simlikshunoslik // Sharq. Toshkent, 2022 y.141-b.
5. Matkarimova M.R. «Xorazm sharoitida kunjut navlarini hosildorligiga agrotexnik tadbirlarni ta’sirini o‘rganish» «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», ISBN 978-9910-658-53-2.2024 y. 91-96-b
6. Matkarimova M.R. The influence of the planting rate and and period on the dynamics of biometric development of Sesame-varieties Tashkentsky-122 and Kora shakhzoda). Актуальные проблемы современной науки № 2. 2024. DOI: 10.25633/APSN.2024.02.06 90-94 с.
7. Qurbonova O.H. Толщина посадки и урожайность зерна кунжута “Ташкент-122” при весенне-летнем выращивании // Актуальные проблемы современной науки Ж. № 4.(127) 2022 г. Москва ISSN 1680-2721 103-106 стр. (06.00.00 № 5). II бўлим (II часть; II part).

Research Science and
Innovation House

